

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11187861>

## SHARQ MUTAFAKKIRLARI MUSIQA SOZLARI HAQIDA

**Xo‘janazarov Fayzullo**

*Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o‘qituvchisi*

**Islamova Muhiba**

*Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o‘qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Barbod, buyuk faylasuf va mutafakkir Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O‘zlug‘ ibn Tarxon Al-Farobiy, Ibn Sino, Darvish Ali Changiy va boshqa allomalarning musiqa sozlari haqidagi qarashlari tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *Farobiy, musiqa, tillar bilimdoni, ilmlar klassifikatsiyasi, notalar, ritm, yurak, ruhiyat, ta’sirchanlik, kitoblar, zamonlar, falsafa bo‘d, jins, jam, iyqo, arfa, lira, lyutnya, tanbur, qonun, ud, nay, surnay, karnay.*

Tarbiya - shaxsni muayyan yo‘nalishda shakllantirish bilan bir qatorda uni barkamol qilib tarbiyalash maqsadida turli insonlarning bir-biriga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy munosabatdir. Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat-san’at taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir desak ayni haqiqat. Albatta, fan va madaniyat, san’at rivojlanishi ta’lim-tarbiyaning qay darajada olib borilishidan kelib chiqishi shubhasiz. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. Sharq mutafakkirlarining musiqa ilmi haqidagi qarashlari, musiqiy me’rosi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktablarida o‘qiyotgan yoshlar uchun tarbiya va bilim manbai hisoblanadi.

Markaziy Osiyolik buyuk san’atkor, xonanda, sozanda va bastakor, shoir va nazariyotchi, ustozoda mumtoz musiqa asoschisi Borbad, taxminan eramizning VI asri 80-yillarida tavallud topgan. Borbad, Barbad, Pahlabod, Faxliz Marviy (taxminan 585, Niso — 628/38, Marv) — atoqli sozanda, xonanda, shoir, bastakor. Dastlab ijro va ijod sirlarini o‘z otasidan o‘rgangan. Ularga Marvga ko‘chgan davrlarda, bu yerdagi mashhur ustozlarga shogird tushgan. Keyinchalik (618—28) Sosoniylar davlati shohi Xusrav [I Parviz saroyi (Ktesifon) da xizmat qilgan. Manbalarda B. ayniqsa turkumli (xususan, sosoniylar tomonidan davlat dini maqomiga ko‘tarilgan Zardushtiylik marosimlari bilan bog‘liq bo‘lgan), muayyan tizimdagi asarlarga mehr qo‘yganligi ta’kidlanadi.

Qarshi DU dotsenti A. Raxmonqulov Borbad yirik hajmli asarlar yaratishga katta hissa qo'shganligi. Ushbu asarlar 12 davrga bo'linib, bu tizim o'z ichiga katta va kichik shaklli asarlarni jam lagan va keyinchalik Sharq xalqlari tomonidan maqomlar shaklida qabul qilinganligi borasidagi ilmiy ma'lumotlarni o'z maqolalarida ta'kidlab o'tganlar.

Musiqa sohasining eng yorqin namoyandalaridan yana biri ulug' mutafakkir va qomusiy olim Abu Nasr Muhammad Forobiy IX asming ikkinchi yarmida Sirdaryoning Forob shaharchasida tavallud topdi.

Farobiy o'z davridayoq misli ko'rilmagan yutuqlarga erishgan buyuk allomadir. Uning ismidagi Farobiy so'zi uning qishlog'ining nomidan olingan ya'ni Sirdaryoning chap qirg'og'ida joylashgan joy nomidan kelib chiqqan. Farobiy mana shu Farob qishlog'ida 873- yilda tug'ilgan. Farobiy 70 xil tilni mukammal egallaganligi haqida ma'lumotlar bor.

Uning "Kitob al – musiqa al –kabir" ("Musiqa haqida katta kitob")i ulkan ahamiyatga ega. O'rta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi.

Kitobning ikkinchi qismi o'sha davr musiqa cholg'ulariga bag'ishlangan bo'lib, unda *lyutnya, tanbur, nay, rubob, chang, qonun* va boshqa musiqa cholg'ulari batafsil ta'riflab berilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

"Musiqa haqidagi katta kitob"da Farobiy yana bir cholg'u asbobi tanburni shunday ta'riflaydi. Olimning fikricha, *tanbur (dilni tirnash)* udga eng yaqin turdagi cholg'ulardan biridir.

Tib ilmining donishmandi Ibn Sinoning "Shifo kitobi"ning musiqaga bag'ishlangan bo'limi - "Musiqa ilmi lo'plami", "Najot kitobi" - ilmiy qomusiy asarining musiqaga bag'ishlangan qismi, "Donishnoma" qomusiy asarining "Musiqa haqida" deb atalgan qismi bizgacha yetib kelgan musiqaga doir asarlaridir. Ibn Sinoning musiqaga oid asarlari ichida mukammal va kattasi "Shifo" qomusiy asari bo'lib tarkibi to'rt qismdan iborat. Bular "Mantiq", "Fizika". "Matematika" va "Ilohiyot"dir.

Darvish Alining (XVII asrda) Buxoroda yaratilgan musiqaga doir risolasi O'rta Osiyoning yirik shaharlarida mavjud bo'lgan cholg'ular hamda mohir ijrochilar haqidadir.

**Darvishali Changiy** (to'liq ismi: Darvish Aliyi Changiy al-Xoqoniy ibn Mirzo Ali Changiy ibn Abdulali Qonuniy ibn Xo'ja Abdullo Muhammad Marvarid; [musiqashunos](#), [bastakor](#), [sozanda](#), [hofiz](#) va [shoir](#). Yoshligidan musiqaga qiziqib, Xojagiy Ja'far Qonuniy, Ali Do'st Noyi, Amir Masti Qobuziy, Xasan Kavkabiylardan ta'lim olgan. [Movarounnahr](#) va [Xuroson](#) madaniy markazlari ([Buxoro](#), [Balx](#), [Andijon](#), [Kesh](#), [Samarqand](#) kabi shaharlar)da yashab ijod qilgan. She'rlarini Changiy taxallusi bilan yozgan. Bir qancha [qasida](#), [g'azal](#), [ruboiylari](#) va "Risolai musiqiy" asarlari bizgacha yetib kelgan.

Darvish Ali o'tmishdoshlari singari torli, mizrobli cholg'ular orasida tebranish ohangiga ko'ra eng yaxshisi sanalgan udni cholg'ular "shohi" deb atadi.

Darvish Ali ta'rif bergan cholg'ulardan yettitasi: tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qobiz, g'ijjak o'sha davrda eng keng tarqalgan cholg'ular edi. Darvish Alining ma'lumotlari musiqa amaliyotida dastlab ansamblda uyg'un kolorit hosil qiladigan torli-noxunli va torli-kamonchali cholg'ular qo'llanilganligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi.

Abu Mansur ibn Zayla (-1049) Ibn Sinoning maslakdoshlaridan va shogirdlaridan biri bo'lgan. Uning tug'ilgan yili manbalarning birida 998 yil deb ko'rsatiladi.

Ibn Zaylaning "Musiqaga oid to'liq kitobi"da musiqaga ta'rif, tovush hosil boiishi va uning sabablari, tovushning nafasga ta'siri, konsonans va dissonanslar, bo'd, jins, jam, iyqo, musiqa turlari, musiqa cholg'ulari kabi masalalar atroflicha yoritiladi.

XIII asrda yashab ijod qilgan buyuk musiqashunosi, sozandasi va hofizi Safiuddin Abdulmo'min al-Urmaviy al-Bag'dodiy (1216- 1294) katta ijodiy meros qoldirdi. U Urmiya shahrida tavallud topdi (hozirgi kunda G'arbiy Ozarbayjon).

Urmaviy ud sozida ijro qilgan, mug'ni va nuzxa kabi musiqiy cholg'ularni yaratgan ekan. U turli fanlar bo'yicha bir nechta ilmiy asarlar yaratdi. Ular orasida ikkitasi musiqa yo'nalishiga tegishli bo'lib, bular "Kitabul-advor" va "Risalatush-Sharafiya" deb nomlanadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, qadimgi Sharq madaniyati bag'rida, milliy xalq cholg'ularimiz shakllandi. Ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarni, tovush tusini saqlab qoldi, o'ziga xos tuzilishi tufayli, nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qo'bizlar an'anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A. Rahmonqulov Abdujabbor Nadjimovich, Mo'minov Doston Hakim o'g'li "Cholg'u sozlari haqida sharq mutafakkirlarining qarashlari" Qarshi DU da o'tkazilgan Respublika konferensiyasi materiallari to'plami 2023 yil may. 9-sahifa
2. Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. T.: O'qituvchi, 1995 - 128 b.
3. Mirzayev O'. Cholg'u ijrochiligi va ansambl. Navoiy -2019. 150 bet.
4. Sayfiddinova, M. (2021). FAROBIYNING MUSIQA AMALYOTIGA QO'SHGAN BUYUK HISSALARI. *Журнал музыки и искусства*, 2(3).  
ИЗВЛЕЧЕНО ОТ <https://history.jdpu.uz/index.php/art/article/view/4382>
5. Najimovich, R.A. 2023. Development of Students' Creative Thinking Skills by Organizing Music Culture Lessons Based on STEAM Education. *International Journal on Integrated Education*. 6, 5 (May 2023), 87-89.